



DO‘STLIK BAYROG‘I

23-son (4183)

2024-yil 6-iyun
PAYSHANBA

Daraxt bir joyda
ko‘karadi, deyishadi.
To‘ppa-to‘g‘ri, bu gap
daraxtlarga juda
mos tushadi.
Odamlarga emas!

O‘tkir Hoshimov

Gazeta 1983-yil 1-yanvardan chiqq boshlagan • dustlik@umail.uz • t.me/dustlikznamenya_uz • facebook.com/Do‘stlik bayrog‘i | Знамья дружбы

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligiga

XATIRCHI: TARAQQIYOT ODIMLARI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan joriy etilgan kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va “mahallabay” ishlash tizimi nafaqat joylardagi muammolarni hal etish, balki hududlarni rivojlantirishning ham mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi.

Bunda aholi bandligini ta‘minlash, kam ta‘minlangan oilalarni kambag‘allik darajasidan chiqarish, doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga xorijga chiqib ketgan fuqarolar bilan ishlash, “Sayhunobod tajribasi”ni joriy etish, aholi kayfiyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish, “mahalla yettilligi” faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas‘uliyatini oshirish yo‘nalishlariga e‘tiborni qaratish zarurligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash borasida Xatirchi tumanida e‘tirofga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1-sektorda jami 17 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud bo‘lib, aholi soni 50 242 nafarni, shundan, xonadonlar soni 9 511 tani, oilalar soni esa 11 420 tani tashkil etadi.

Davomi 2-betda.

Qutlug‘ sana shodiyonalari

MARKAZIY KON BOSHQARMASI 60 YOSHDA

2024-yil Markaziy kon boshqarmasi jamoasi uchun alohida ahamiyatli va shukuhlidir. Chunki, bu yil korxonada tashkil topganligining 60 yilligi hamda uning tarkibidagi 2-gidrometallurgiya zavodi va Tashqi suv ta‘minoti birlashgan energoxizmatining 55 yilligi qo‘shaloq tantana sifatida nishonlanmoqda.

Oltmish yil - tarixan qisqa davr. Shu muddatda asriy Qizilqum bag‘rida yashirinib yotgan tabiiy boyliklarni izlab topish, o‘zlashtirish, cho‘lda obod manzillar, ko‘rkam shahar va yirik ishlab chiqarish korxonalarini bunyod etish yo‘lida asrlarga tatigulik yaratuvchanlik ishlari bajarildi. Ana shunday ishlarning boshida turgan turli millatga mansub minglab odamlar o‘zlariga abadiy haykal o‘rnatdilar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, Zarafshondek ko‘rkam va betakror shaharda odamlarning farovon yashashi, ishlashi, dam olishi, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan rivojlanishi, intellektual qobiliyatini ro‘yobga chiqarishi uchun yaratilgan sharoitlar shundan dalolat beradi.

60 yil davomida minglab mutaxassislardan tashkil topgan Markaziy kon boshqarmasi shakllandi va bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu davrlarda qanchalab turli millat vakillaridan iborat konchi va metallurglar yuqori mas‘uliyat, professionallik va o‘z ishiga cheksiz fidoyilik bilan ishlashdi. Har bir yil mehnat muvaffaqiyatlari



va yutuqlarga, yangi texnologiyalarni qo‘llashga, yangi zahiralarni qidirishga, tezkor hamda murakkab ishlab chiqarish yechimlariga juda boy bo‘ldi.

Davomi 3-betda.

Mavsum – qizg‘in pallada

“ISH QUROLING SOZ BO‘LSA, MASHAQQATING OZ BO‘LAR”

Ayni vaqtda respublikamiz bo‘ylab 2024-yil g‘alla o‘rim-yig‘imi uchun tayyorgarlik qizg‘in pallaga kirgan. Viloyatimiz dehqonlari tomonidan ham “Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar” naqligiga amal qilinib, o‘rim-yig‘im mavsumida zarur bo‘ladigan barcha texnikalar shay holatga keltirilgan.

Ma‘lumot o‘rnida aytish kerak, mirdanlarimiz joriy yilda 44 ming 300 gektar suvli maydonda boshqoqli don ekinini yetishtirib, undan yuqori hosil o‘rib-yig‘ib olish maqsadida barcha agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirmoqda. Ana shu ezgu maqsad yo‘lida joriy mavsumda tumandagi o‘rim-yig‘im ishlariga 91 ta yuqori unumli don o‘rish kombaynlari jalb etilishi rejalashtirilgan.

Ushbu kombaynlardan 32 tasini “Keys”, 56 tasini “Klaas Domintor”, 3 tasini boshqa rusumdagi texnikalarni tashkil etadi. Mavsum avvalida kombaynlarni tayyorlash uchun jami 5 milliard 644 million so‘mlik ehtiyot qismlari, shinalar, akkumulyator batareyalari hamda servis o‘tkazish uchun yonilgi-moylash materiallari filtrlarga va boshqa ehtiyot qismlariga talab borligi aniqlangan. Ayni paytga

qadar g‘allachilik klasterlari tomonidan kombaynlarni ta‘mirlash uchun 4 milliard 450 million so‘mdan ortiq mablag‘ o‘zlashtirilib, zarur ehtiyot qismlar yetkazilgan.

Inspeksiya tomonidan kombaynlarning ta‘mirlanishi, kerakli ehtiyot qismlar uchun talab etiladigan mablag‘ning o‘zlashtirilishi, mexanizatorlarga zarur sharoitlarning yaratilishi yuzasidan kunlik monitoring o‘tkazib borildi, – deydi “O‘zagroinspeksiya”ning viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi B.Bozorov. - Xususan, mavsum boshidan hozirga qadar o‘tkazilgan nazorat tadbirlari davomida boshqarma va tuman bo‘limlari tomonidan kombaynlarni ta‘mirlashda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan vakolatli idoralar rahbarlariga 15 ta yozma ko‘rsatma va 130 ta ogoh-

lantirish xatlari berilib, 5 ta taqdimnoma kiritilgan. - Mavsumda qatnashishi belgilangan “Agroservis MTP” MCHJlarga qarashli 45 ta, fermer xo‘jaliklariga qarashli 39 ta va boshqa tashkilotlarga qarashli 7 ta kombaynlarni bitta bir texnik ko‘rikdan o‘tkazilmoqda.

Ko‘rik jarayonlarida kombaynlarda uzul va agregatlarning sifatli ta‘mirdan chiqarilganligi, servis xizmatlarining o‘tkazilganligi, tungi yoritish va gabarit chiroqlarining ishlashi, birlamchi o‘t o‘chirish vositalarining butligi, don to‘kilishining oldini olish maqsadida germetizatsiya ishlari amalga oshirilganligiga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda.

Inspeksiyaning viloyat boshqarmasi Axborot xizmati.

Munosabat

BUYUKLARGA BESHIK BO‘LGAN BUXORO

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 31-may va 1-iyun kunlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalarni ko‘zdan kechirish, yirik obyektlar qurilishiga start berish, mahallalar hayoti bilan tanishish uchun Buxoro viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Bahouddin Naqshband majmuasi yanada obod qilinib, tarixiy asiyat tiklanar ekan, ziyorat chog‘ida ushbu ishlar ko‘zdan kechirildi. Shuningdek, Toqi miyona darvozasi boruvchi tarixiy yo‘lakni tiklagani o‘zlikni anglash, tarixga hurmatimni ifodasi bo‘ldi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Qolaversa, Prezidentimizning endi bu yerdagi har bir obidaga, xonlar dahmalariga bitiklar yozib qo‘yish bo‘yicha bergan tavsiyalari ushbu ziyoratga kelganlarga tarixni anglash va ma‘naviy ruh bag‘ishlashi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Prezidentimizning olimlar bilan o‘tkazgan suhbat chog‘ida Bahouddin Naqshband merosini chuqur o‘rganish, xorij davlatlardan manbalarni olib kelish, ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy sayohlarga qulayliklarni kengaytirish maqsadida, yurtimizning iqlimiga xos sharoitlar yaratish, shuningdek, muzeyni Imom Buxoriy majmuasidagidek, mazmunan boyitish zarurligi yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar, mas‘ullarga berilgan ko‘rsatma va topshiriqlar kelgusida ushbu majmuani ma‘nan boyitishi baroba-

rida, ziyoratchilar sonining oshishiga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident tashrif doirasida 31-may kuni Buxoro viloyatida yirik energetika va transport majmualarining qurilishi boshlandi. Yana uchta yirik inshoot — MTO gaz-kimyoy majmuasi, quyosh elektr stansiyasi va Buxoro xalqaro aeroporti qurilishiga start berildi.

Buxorodagi yangi aeroportning o‘tkazuvchanlik quvvati soatiga 1200 yo‘lovchini tashkil etishi, turizm rivojlangan, xorijiy sayohatlar ko‘p tashrif buyuradigan Buxoro uchun ayni muddao bo‘ldi.

Ushbu yirik loyihalarning ishga tushishi aholining elektr energiyasi va transportga bo‘lgan talabini to‘la qondirishi bilan birga viloyat taraqqiyotida, aholi hayotining farovonligida o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi aniq.

Buxoroga 2024-yil uchun 1 milliard 300 million dollarlik 607 ta loyihani amalga oshirish e‘tibori viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yanada ko‘tarilishiga imkon yaratadi.

Yurtimizda birgina Buxoro misolida xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomo-

nidan umumiy qiymati 14 milliard dollarlik 80 ta loyihalar jumladan, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Malayziya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning yirik kompaniyalari jalb etilganligi, qurilish, elektr texnikasi, kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika, tibbiyot, konchilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlarni qamrab olganligi xalqimiz kelajagini o‘ylab qilinadigan asosiy ishlardan biri bo‘lib, bu viloyatning imkoniyatlarini yanada oshirishi, aholi bandligini ta‘minlash va turmush farovonligini yanada o‘shirishga ijobiy natijalar berishi, shubhasiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, muhtaram yurtboshimizning Buxoro viloyatiga tashrif davomida boshlab berilgan yangidan-yangi loyiha va tashabbuslarning hayotga to‘la tatbiq etilishi bilan xalqning roziligini, shukronasi hamda insonning yaxshi yashashga bo‘lgan ishonchi yanada oshib boraveradi va buyuklarga beshik bo‘lgan bu buyuk zaminda Buxoriy, Ibn Sino, Naqshbandiy, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Razzoq Hamroyev, Mutal Burxonov, Ibrohim Muminov kabi buyuk ajdodlarimizning hali ko‘plab izdoshlari yetishib chiqadi.

Akram MUQIMOV,
Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat
markazi Navoiy viloyati
bo‘limi rahbari.

Shijoat

MAQSADIM - “ARABXONA”NI NAMUNALI MAHALLA DARAJASIDA KO‘RISH

Ikki yildirki, Navbahor tumani “Arabxona” mahallasida hokim yordamchisi bo‘lib ishlayman. Biroq, shu davr ichida hayotimdagi unutilmas kun bo‘lib 2023 yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Navoiy viloyatiga tashrif chog‘ida jamoatchilik faollari bilan qilgan muloqoti bo‘ldi. Men bu uchrashuvga Navbahor tumanidan onlayn qatnashdim. To‘g‘ri yuzma-yuz ko‘rishmagan bo‘lsamda, so‘zga chiqib, hokim yordamchilarga berilayotgan imkoniyatlardan minnatdorchiyligimni bildirgan edim hamki, davlatimiz rahbarining menga aytgan so‘zlari hali ham qulog‘im ostida xuddi hozirgidek jaranglaydi.

“...Shijoatdan qaytmagin. Mana shunday sharoitda toblanib, menga ko‘makdosh, yelkadosh bo‘layotgan uchun seni timsolingdagi navbahorlik hokim yordamchilariga rahmat aytmochiman...” Prezidentimizning bu so‘zlari meni har kun mahallam odamlari oldiga chorlaydi. Nafaqat men, balki Navbahor tumanidagi 42 ta mahalla hokim yordamchilari qalbida mamlakatimizdagi islohotlarni amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatib ishlashga undaydi. Chunki, mamlakat rahbari odamlarning farovon yashashi va tadbirkorlik qilishi uchun barcha imkoniyatlar eshigini ochdilar.

“Arabxona” mahallasida ish boshlaganimda 79 nafar tadbirkorlik sub‘yektini bor edi. Ayni kunda ularning soni 200 nafargacha yaqinlashdi. 180 nafar ishsizlar bor edi,

uyuma-uy yurib, ularning iqtisodiy sharoitini o‘rganib chiqdim. Kimga issiqxonalar barpo etish uchun kredit, tikuv syexlari ochgan xotin-qizlarga mashinalari ajratdik. Bunga asosiy sabab, yurtimiz rahbarining mahalla tizimiga bo‘lgan e‘tibori tufaylidir. Aholi bilan bevosita ishlashning eng samarali usuli mahallabay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan e‘tibordir. Xususan, har bir fuqarolar yig‘inida mahalliy hokimiyat vakili, ya‘ni hokim yordamchilarining ishlayotganidan aholi mamnun. Birgina misol, buni odamlarning o‘zidan eshitganman, avvallari tadbirkorlik qilish uchun moliya muassasasidan mablag‘ olishning qiyinchiliklari bo‘lgan. Ba‘zan tadbirkorlik uchun yo‘natilgan mablag‘lar maqsadli ishlatilmagan. Endi esa fuqarolarning tadbirkorlik qilish salohiyatidan kelib

chiqib, kredit mablag‘lari ajratilayotdi. Ishsizlarni kamaytirish, kambag‘allikni qisqartirish uchun kichik loyihalarga katta e‘tibor qaratdim. Mahallamda ishsiz aholini 4 toifaga bo‘lib chiqdim. Masalan, Oybek Rahmonovlar xonadonida 4 kishi ishsiz bo‘lgani uchun “Oybek-Samiya” oilaviy korxonasini ochdik, 50 million so‘m mablag‘ ajratdik. Hozirgi kunda olgan non pishirish pechi foydaga qolib, yaxshigina daromad ham olmoqdalar. Ham 4 nafar fuqaroning bandligi ta‘minlandi, mahallada to‘y marakalarning non va non mahsulotlari, pishiriqlari shu “mini pekariniy”dan chiqq boshladi. Demak, bitta loyihama ish berdi, maqsadimga erishdim.

Davomi 3-betda.

Ta‘lim va hayot

“SINOV - NATIJA – TAHLIL” o‘z samarasini bermoqda

Yoshlar uylarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli o‘g‘il-qizlarni kashf etish, jamiyatda ularning rolini oshirish har bir rivojlangan mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda bu borada olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ishlar samarasi salohiyatli yoshlar safi yildan-yilga kengayib borayotganida ham namoyon bo‘lmoqda.

Ma‘lumki, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ilm-fanga ajratilgan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 2 foizgacha ko‘paytirish belgilangan. Maqsad innovasion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar ko‘lamini yanada oshirishdan iborat. Respublikamizning barcha hududlarida yuqori malakali mutaxassislarni tay-

yorlashga qaratilgan Prezident maktablari hamda ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilganligi yurtimizda ilm-fan sohasini rivojlantirishdagi eng muhim qadam bo‘ldi.

Bugungi kunda viloyatimizda 1 ta Prezident va 7 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat olib bermoqda. Xususan, Qiziltepa tumani ixtisoslashtirilgan maktabi 2022-2023 o‘quv yilidan o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lib,

336 o‘ringa mo‘ljallangan. Aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan maktabda hozirgi kunda 45 nafar pedagog 308 nafar o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya berib kelmoqda. Ularning 20 nafari o‘liy, 15 nafari 1-, 9 nafari esa 2-toifali o‘qituvchilardir.

Ushbu o‘quv muassasasida o‘tkazilgan “Ochiq eshiklar kuni” munosabati bilan OAV vakillari, jurnalist va blogerlar uchun press-tur hamda matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbir davomida ishtirokchilar o‘quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar bilan tanishdilar.

Davomi 3-betda.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligiga

XATIRCHI: TARAQQIYOT ODIMLARI

Davomi. Boshlanishi 1-betda.

Xususan, hududidagi iqtisodiy faol aholi 29 450 nafar, shundan, ish bilan band bo'lganlari soni 21 110, ishsizlar soni 1 599 nafarni tashkil etib, ishsizlik darajasi 5,6 foiz, xorijga ishlashga ketganlar soni 756 nafarni tashkil etadi. O'rganishlar davomida 1 sektor hududida tomorqadan samarali foydalanilmayotgan 335 ta hamda ekin umumani ekilmagan 73 ta xonadonlarning tomorqa yer maydonlariga 2 va undan ortiq hosil beradigan ekinlar ekilishi ta'minlandi.

Tumandagi 1 sektorning 17 ta MFYga ATB "Mikrokreditbank" boshqarmasining 17 nafar xodimi barcha mahallalarga brikirtiladi. Brikirtilgan banklar va hokim yordamchilari tomonidan har bir mahallada 5-7 tagacha kam daromadli, shuningdek, 1 sotix tomorqadan kamida 1-2 million so'm, har bir xonadon bo'yicha 50-60 million so'm daromad olish uchun 130 ta xonadonlar tanlab olinadi va ularga biznes paketlar ishlab chiqildi. Shu bilan bir qatorda, mavjud 70 ta mahallalardagi 37,2 mingta xonadonning 4 360 gektar tomorqa yer maydonlariga sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari to'liq ekilishi ta'minlandi. Natijada mavsum yakuniga qadar 49,0 ming tonna oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilib, 143,0 mlrd.so'mlik daromad olinishi kutilmoqda.

Aytish mumkinki, har bir mahallada 5-7 tagacha kam daromadli jami 500 ga yaqin xonadonlar tanlanib, ularga "1 sotix tomorqadan kamida 1-2 million so'm daromad" degan mezon asosida molliyaviy loyiha paketlari yetkazildi. Natijada, ushbu xonadonlar o'z tomorqalaridan 50-60 million so'mgacha daromad olish imkonini paydo bo'ladi.

Birgina issiqxonalar faoliyati misolida gapiradigan bo'lsak, jami manbalar (kredit, xomiylik, subsidiyalari) hisobidan 40 dan ortiq xonadonlarga issiqxonalar o'rnatilib, issiqxonalaridan yiliga ikki va undan ortiq hosil olish natijasida bitta xonadonning o'rta daromad 20-25 mln.so'mdan oshishiga erishiladi.

Masalan, "Tasmachi" mahallasidagi Shomirza Safarov xonadoniga 33,0 mln.so'm loyiha paketi hisobiga 3 dona asalari qutisi, 2 ta yirik va 4 ta mayda shoxli chorva mollari yetkazib berildi hamda 4 sotix tomorqasidan samarali foydalanish uchun kartoshka va boshqa poliz ekinlari ekilishi ta'minlandi. Natijada, xonadon egasi avval yiliga 12,0 mln.so'm daromad olgan bo'lsa, amaliy ko'mak natijasida yil oxiriga qadar o'rta daromad 64,0 mln.so'mga yetkaziladi va oilaning 2 nafar a'zosi ish bilan ta'minlanadi. Xuddi shunday, "Yangi" mahallasida Dilnavoz Mamatova xonadoniga 33,0 mln.so'm loyiha paketi hisobiga 4 ta yirik shoxli va 5 ta mayda shoxli chorva mollari yetkazib berildi hamda 3 sotix tomorqasidan samarali foydalanish maqsadida kartoshka va boshqa poliz ekinlari ekib berildi. Mazkur xonadon avval yiliga 18,0 mln.so'm daromad olgan bo'lsa, amaliy ko'mak natijasida yil oxiriga qadar o'rta daromad 68,0 mln.so'mga yetkaziladi va oilaning 2 nafar a'zosi bandligini ta'minlanadi. Shu bilan birga, 39 ta lider tadbirkorlar boshchiligida urug'lik va ko'chatlar yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Tomorqasidan samarali foydalanilmayotgan 1,5 mingta hamda ekin umumani ekilmagan 300 dan ortiq xonadonlarning tomorqa yer maydonlariga ikki va undan ortiq hosil beradigan ekinlar ekilishiga erishildi. Natijada, tomorqadan kamida 2 marotaba hosil oladigan xonadonlarning soni 23,3 mingta ko'payib, ulardagi yer maydoni 2 730,0 gektarga yetdi.



donlar soni 23,3 mingta ko'payib, ulardagi yer maydoni 2 730,0 gektarga yetdi.

"Bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida dehqon xo'jaliklari uchun ajratilgan bir konturdagi daromadli eksportbop ekin ekiladigan na'munali loyihalarni amalga oshirmoqdamiz. Bir so'z bilan aytganda, Sayxunobod va Uychi tumanlari misolida ishlarni tashkil qilganimizdan so'ng, aholida ham ta'minlandi.

Ushbu hududda qiymati 30 mln.dollar bo'lgan 1000 ish o'rini paxta tolasidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan konveyer usuldagi tekstil korxonasi faoliyatini olib borqoda.

Sanoat zonasida qiymati 137,8 mlrd.so'm bo'lgan 23 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirayapmiz. Shundan, 10 tasi qiymati 36,8 mlrd.so'm bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirildi, 4 tasi qiymati 40,2 mlrd.so'm bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini yil yakunigacha foydalanishga topshiriladi va 70 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratsam, aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 2022 yilda 17 foizni, joriy yil boshiga kelib 62 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil yakuniga qadar 70 foizga yetkaziladi. Xususan, investitsiya dasturida asosida 1 ta yirik loyiha bo'yicha 2 ta, ya'ni "Bog'chakalon" hamda "Tinchlik" mahallalarida amalga oshiriladigan loyihalarga 11 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilmoqda.

Shuningdek, 2022 yilda tuman aholisi soni 206 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yilga kelib 213 ming nafardan oshdi, aholi sonining oshishi boshqa ijtimoiy sohalar singari odamlarning uy-joyga bo'lgan talabini ham ortitirmoqda, bunga yaqqol misol joriy yilning o'tgan davrida aholi vakillari tomonidan arzon uy-joy bilan ta'minlash masalasida 300 ga yaqin murojaatlar kelib tushgan.

Quvonarli jihati shundaki, davlatimiz rahbarining oqilona islohotlari va bu borada qabul qilingan Farmon va Qarorlari asosida tuman markazida "Yangi O'zbekiston" massivini barpo etish ishlari boshlab yuborildi. Massivda 182 xonadonli 6 ta zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar o'rin olgan, shundan 2 tasi yil yakuniga qadar foydalanishga topshiriladi.

"Inson qadri" ulug'langan yurtda islohotlar jarayonida yuqoridagi raqamlar va yangilanishlar bularning barchasiga tumanimizning fidoyi, mehnatkash, ko'ksida yurtga daxldorlik hissi bilan yashayotgan aholimiz bilan hamjihatlikda erishyapmiz. Oldimizda maqsad va rejalarimiz, qilgan ishlarimizdan ko'ra qilmaganlarimiz ko'p. Tumanimizning har tomonlama rivoj topishi, odamlarimizning davlatdan rozi bo'lib farovon yashashi yo'lida bor kuch-g'ayrat va imkoniyatimizni safarbar qilamiz.

Umidjon ADIZOV, Xatirchi tumani hokimi.

YOSHLAR VA JAHON

Sportdagi jarayonlarning to'rt yillik sikl atrofida aylanishini hisobga olsak, bu yo'nalishdagi yutuq va kamchiliklarni bayon etish boshqa sohalarga qaraganda ancha tabiiyroq tuyuladi, lekin har bir sport turiga to'xtalib o'tish katta hajmdagi ish va uni bitta maqolada qamrab olish imkonsiz. Shuning uchun eng muhimlariga to'xtalamiz.



Xatirchi tumanida jami 18 ta sport turlari mavjud bo'lib, shundan 15 tasi Olimpiya sport turlari, (futbol, erkin kurash, gandbol, stol tennis, badiiy gimnastika, suzish, yengil atletika, voleybol, badminton, boks, og'ir atletika, taekvondo WTF, kamondan otish, basketbol) noolimpiya sport turlari 2 ta (shaxmat va qo'l jangi). Milliy sport turlari 1 ta (kurash). Para sport turlari esa 2 ta, ya'ni, para suzish, para yengil atletikani tashkil etadi.

2023 yilda tuman sportchilari turli yosh toifalarida Respublika va Xalqaro musobaqalarda hamda kuboklarda 58 ta medallarni qo'lga kiritishdi. Xususan, O'zbekiston chempionati va kuboglarida 5 ta oltin, 20 ta kumush, 24 ta bronza, Osiyo chempionatlari va kuboglarida 1 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza, Jahon chempionatida 4 fevralgacha bo'lib o'tgan "IHF Xalqaro Trofi kubogi" musobaqasida Madatova Sabrina Ulug'bek qizi respublika terma jamoa safida ishtirok etib 3-o'rinni egalladi. Yana bir quvonarli jihat, joriy yil boshidan O'zbekiston chempionatlari hamda



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bo'yicha 2023 yil tumanda yoshlar o'rtasida "Besh tashabbus olimpiadasi" ommaviy sport musobaqalarining Respublika bosqichida o'rin olgan yoshlarning mahallalariga 2023 yilda "Navbahor" MFYda 1 ta workout maydoni, "Jaloyir" MFYda 1 ta universal maydon va 1 ta streyet workout maydoni, "Fidokor" MFYda 1 ta workout hamda 1 ta streyet workout, "Yangi qurilish" MFYda 1 ta streyet workout maydoni, "A. Temur" MFYda 1 ta workout maydoni qurilib, yoshlar ixtiyoriga topshirildi va buning natijasida bir vaqtning o'zida minglab yoshlarga qo'shimcha ravishda ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun zamin yaratildi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, bundan to'rt yil avval jahonda "Koronavirus" pandemiyasining yuzaga kelishi, dunyo mamlakatlari qatori yurtimizda ham aholining sog'liq, jismoniy salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi. Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zarari odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug'ullanishni tushunib yetdik. Joriy va kelgusi yillar ham xatirchilik yoshlar uchun samarali bo'lishiga va sport bilan shug'ullanishiga ishonamiz.



Xalqaro musobaqalarda jami 16 ta medal, shundan 3 ta oltin, 2 ta kumush, 11 ta bronza medalar qo'lga kiritildi.

Ma'lumki ayni paytda tumandagi sport

OLTINSOYGA BORSAM MEN AGAR...

Sayohat qilishni kim ham istamaydi. Agarda cho'ntagingizga mos tur paket va manzil bo'ladigan bo'lsa, bu nur ustiga a'lo nur. Ayni paytda esa sayyohlar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham mamlakatimizda qator imkoniyatlar eshigi ochiq. Bundan samarali foydalanayotgan tadbirkorlar ham yaxshigina natijaga ega bo'lmoqdalar va sayyohlarga qulay muhit yaratib, betakror manzillarda dam olishlari uchun ham bir qator yangiliklarni amalga oshirilmogda. Buning natijasida 2023-yilda Xatirchi tumaniga 200 000 mingga yaqin xorijiy va mahalliy sayyohlarning tashrfi kuzatildi. Bundan ruhlanga soha mutasaddilari 7 ta mahallalarda turizmni rivojlantirish bo'yicha ishlarni allaqachon boshlab yuborishgan. Xususan, qiymati 11 580 mlrd. so'mlik 12 ta loyiha faoliyati yo'lga qo'yilishi hamda 46 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning islohotlari samarasi nafaqat mamlakat tadbirkorlari, balki xorijdagi fuqarolarimizni ham o'zi tug'ilib o'sgan mahallasiga qaytishga hamda investitsiyasini o'zining qishlog'iga kiritishiga imkoniyat yaratib berdi. Natijada "Langar" mahallasida 10 yildan beri AQSHda yashayotgan xatirchilik 32 yoshli Jahongir Ismoilov qiymati 100 ming dollarlik "Zamonaviy turizm va dam olish maskani" qurilishini boshladi. Yana 2 mln. dollar-gacha mablag' kiritish rejasini borligini ochiqdadi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, "Langar", "Angidon", "Oltinsoy", "Sangijuman", "Maydon", "Oq-tepa", "Qo'rg'ontepa", "Baxshijar" turizm mahallalariga ixtisoslashtirilmoqda. Buning natijasida joriy yilning o'tgan davrida tumanga 200 ming nafar xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrfi kuzatilgan bo'lsa, yil yakuniga qadar 800 ming nafar xorijiy va mahalliy sayyohlarni tashrfi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarni 2017 yil bilan solishtir-

Turizm

kursiya xizmatlari, non, qurut, saryoq va salqin ichimliklar mahsulotlari savdosi va boshqalar turizm xizmatlari sifatida tashkil etilgan va natijada qishloqdagi o'z-o'zini band qilgan fuqarolar soni ortib bormogda.

2023-yilda "Angidon" qishlog'iga 1 850 nafar xorijiy, 52 700 nafar mahalliy sayyohlar tashrfi kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragida 360 nafar xorijiy, 8 600 nafar mahalliy sayyohlar tashrfi buyurdi.

Turizm sohasida tadbirkorlik sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan fuqarolar soni 20 nafarni tashkil etadi. Yana bir muhim jihat, qishloqqa olib boruvchi 4403 avtomobil yo'lning 4,5 km qismi joriy ta'mirlanishi natijasida sayyohlar oqimi ham bir munchaga yaxshilandi.

Bir so'z bilan aytganda, 2023-yil tumanda sayyohlik sohasi rivojlangan yil bo'ldi. 2024 yilda ham ko'zlangan maqsadlar ulkan, ya'ni turizmni yanada rivojlantirish, tumanga sayyohlar oqimini ko'paytirish orqali aholi daromadlarini oshirish, yashash turmush tarzini yaxshilashdan iboratdir. Buning uchun albatta imkoniyatlar yetarli va ulardan oqilona foydalanilgan ekan, tumanga sayyohlarning qiziqishi va oqimi yanada ortishi tabiiy.

Bugungi kunda "Angidon" qishlog'ida 4 ta oilaviy mehmon uyi va 15 dan ortiq dam olish maskanlari va 10 dan ortiq, jumladan, otda sayr, eks-



Mahalliy iqlim xususiyatlari va qulayliklari



Jamoat transporti tizimi



Cahifani "Do'stlik bayrog'i" muxbiri Otabek JANGIROV tayyorladi. Suratlar muallifi Husniddin TO'XTASHEV.

MARKAZIY KON BOSHQARMASI 60 YOSHDA

Davomi. Boshlanishi 1-betda.

Shu kunlarda boshqarmaning ko'pining kishilik katta jamoasi, mehnat faxriylari ko'tarinki ruhda, shukronalik hissi bilan jonajon korxonalarining 60 yillik yubileyini keng nishonlamoqdalar. Bayram munosabati bilan joylarda ommaviy-madaniy tadbirlar, davlat mukofoti sovrindorlari va sohada uzoq yillar samarali faoliyat yuritib, ayni vaqtda nafaqada bo'lgan faxriylar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Zarafshon shahrida shonli sanaga bag'ishlangan asosiy bayram shodiyonlari 31 may kuni "Oltin vodi" madaniyat saroyida bo'lib o'tdi. Tantanali yig'ilish qatnashchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan hayajonli daqiqalarga boy bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi, "O'zbekiston Qahramoni", "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Quvondiq Sanaqulovning mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirishdagi xizmatlari chuqur e'tirof etilgan tabrigidan barcha yig'ilganlar benihoya to'liqlandi va gulduros qarsaklar bilan olqishladi. Shundan so'ng ishlab chiqarish ilg'orlari va jamoatchilik faollaridan bir guruhiga turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi. Ular orasida 2-Gidrometallurgiya zavodi bosh muhandisi Sardor Polvonov ham bor.

"2-gidrometallurgiya zavodi mamlakatimiz metallurgiya sanoatining yuqori potensial va ko'rsatkichlarga ega asosiy ishlab chiqarish korxonasi. Tarixiy sanalar va bayramlarni yutuqlar bilan kutib olish zavodimiz ishchi-xodimlari uchun yaxshi an'anaga aylangan. Yuqori tashkilotchilik, mustahkam tartib-intizom hamda mas'uliyatni o'zida mujassamlashtirgan ahil jamoaning fidokorona mehnati

bilan zavodda shu kunga qadar 1,3 milliard tonnadan ortiq ma'dan qayta ishlandi. Bugun har bir ishchining mehnati munosib rag'batlantiriladigan, yuksak e'tibor beriladigan davrda yashayapmiz. Mening ham mas'uliyatli ishlarim kombinat rahbariyati tomonidan "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoniga munosib ko'rdi. Bundan keyin ham o'z mehnatim bilan yurt taraqqiyoti va Vatanimiz kelajagiga sadoqat bilan xizmat qilishga harakat qilaman. Bu men uchun yuksak sharaftir" - deydi biz bilan suhbatda S.Polvonov.

Markaziy kon boshqarmasi direktori Elmurad Xalikulov ham tantanali yig'ilishdagi chiqishida boshqarmada samarali faoliyat yuritib, kombinat ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan mehnatkashlarni yubiley bilan qizg'in tabrikhladi.

Bugun yer osti boyliklarini o'zlashtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirishdek ulug'vor va mas'uliyatli ishlarda boshqarmamiz mehnat jamoasi o'zining beqiyos hissasi bilan faol ishtirok etib kelmoqda" - deydi tantanali tadbirda so'zga chiqqan E.Xalikulov. Mamlakatimizda



amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishga qaratilgan loyihalar ijrosini ta'minlashda Markaziy kon boshqarmasi yetakchi o'rin egallaydi. Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan korxonamizda



kon-transport jihozlari va texnikalarini modernizatsiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Kon boshqarmasi bo'linmalari yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanib, tejamkor, innovasion ishlanmalar, mutaxassislarining izlanishlari asosida rasionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy etilayotganligi bois barcha jabhalarda yaxshi natijalar qo'lga kiritilayapti. Yangi konlarni ochish, korxonalarini modernizatsiyalash ishlarining samarasi o'laroq respublikamiz xazinasiga oltin yetkazib berish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga yangi ish o'rinlari ham yaratilayapti. Birgina, oxirgi yillar misolida qaraydigan bo'lsak, "Balpantov" va "Tomdibuloq" konlarida 653 ta, "Turbay" konida esa 900 ta yangi ish o'rinlari ochildi. Qanchalik qiyn bo'lmasin, bugun biz faqat oldinga qarab boryapmiz. Albatta, bu jarayon oson kechmayapti. Shunga qaramay, belni mahkam bog'lab, sidqidildan mehnat qilib, barcha sohalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdamiz.

Toshkent shahridan tashrif buyurgan "Sharqoniy" guruhi va "Farxod", "Oltin vodi" madaniyat saroylarining badiiy jamoalari tantanani o'zlarining dilrabo qo'shiqlari, jozibali raqslari bilan bezadilar.

Shonli sanaga bag'ishlangan ko'ngilochar tadbirlar dam olish kunlari ham davom etdi. Zarafshon shahridagi markaziy o'yingohda "Nihol" mukofoti sohibi Sardor Mamadaliyev o'zining jozibali qo'shiqlari bilan konchi va metallurglar hamda ularning oila a'zolariga xush kayfiyat bag'ishladi. Bayram shodiyonlari mushakbozlikka ulanib, ko'rkam shaharning markaziy ko'chasi uzra ottilgan mushaklar samoda jilvakor rangda tuslanib, go'zal manzaralar kasb etdi.

Aziza IRISOVA, MKB muxbiri.

"SINOV - NATIJA - TAHLIL"

o'z samarasini bermoqda

Davomi. Boshlanishi 1-betda.

- Ta'lim muassasamizda o'quvchilarning bilim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan, - deydi maktab direktori Mehriniso Xolova. - Maktabda fizika, kimyo, biologiya, laboratoriya, robototeknika va informatika xonalari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Jamoada o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga undovchi "Ustozlar piramidasi", o'quvchilarning o'rtasida "Yakka tartibda ishlash - sinov daftari", "Sinov - natija - tahlil" loyihalari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, 24 ta fan to'garigida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashadi. O'qituvchilarimizning yuqori darajada o'quvchilarga bilim berishi, o'quvchilarning esa bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarining yuqoriligi bois 2022-2023 o'quv yilidagi maktab bitiruvchilarimizning barchasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan. 2022-2023 o'quv yili yakuniga ko'ra maktabimiz bitiruvchilari o'lgahogahga kirish bo'yicha 100 foizli natijaga erishdi.

Press-tur jarayonida o'quvchilarning dars jarayoni va noakademik to'garaklardagi amaliy ishlaridan namunalari (ko'rgazmalar) ko'rsatib be-



rildi, maktab hududi bo'yab sayohat uyushtirildi. Ayniqsa, o'quvchilarning robototeknika yo'nalishidagi amaliy ishlari barchada katta qiziqish uyg'otdi.

- Men robototeknika yo'nalishiga juda qiziqaman. O'z ustimda ishlash uchun maktabimizda barcha sharoitlar yaratilgan, - deydi muassasaning 10-sinf o'quvchisi Mironshox Shamsiddinov. - Bu yo'nalishda koreyalik mutaxassislardan onlayn tarzda bilim oldim. Yakunda ular 6,5 million so'mlik robot sovg'a qilishdi. O'zim ham bir guruh o'quvchilarga turli robotlar yasashni o'rgatib kelmoqdaman. Hozir "Ofisiant" deb nomlangan oshxonada roboti ustida ish olib bormoqdamiz. Telefon orqali boshqariladi. Boshqa-

rish ingliz tilida dasturlashtirilgan. Uning o'zbek tilidagi muqobilini yaratish ustida ishlayapman.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi 184 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar o'rtasida monitoring ishi guruhi tomonidan barcha o'quvchilardan olinadi-



gan choraklik summativ baholash sinov natijalariga ko'ra, Qiziltepa tuman ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchinchi o'rinni egalladi.

Joriy o'quv yilida ham maktabning bir qator o'quvchilari oliy ta'lim muassasalariga kirish imtiyozini beruvchi turli fanlardan milliy va xorijiy

sertifikatlarini qo'lga kiritgan. Jumladan, 10-sinf o'quvchilari Baxtiyor Kamolov va Akobir Baxronov ingliz tili fanidan xalqaro IELTS sertifikatini, G'aybullo Ubaydulloyev va Suhrob Jalolov hamda 10-sinf o'quvchilari Gulsevar Muhammadova, Dilnura Aslonova, Javlon Haydarovlar ingliz tilidan Multilevel B2 milliy sertifikatini qo'lga kiritgan.

10-sinf o'quvchisi Komila Tojiyeva, Dilfuza Esonovalar esa ona tili fanidan milliy sertifikat egasiga aylandi. Shuningdek, bir guruh o'quvchilar STEM fanlari olimpiadasida faxrli o'rinlarni egallagan.

Tadbir yakunida OAV vakillari uchun matbuot anjumani o'tkazildi. Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi shu'ba boshlig'i Odil Norov va maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Vohid Muhammadovlar o'qitish tizimi va metodikasi hamda 2024-2025 o'quv yili uchun o'quvchilar qabuli to'g'risida ma'lumot berdi.

Zebo QUTLIYEVA, "Do'stlik bayrog'i" muxbiri.

MAQSADIM - "ARABXONA"NI NAMUNALI MAHALLA DARAJASIDA KO'RISH

Davomi. Boshlanishi 1-betda.

Yana bir loyiha haqida gapirsam. Kollejni tamomlagan yoshlarga yo'nalish bergandim, bu ham muvaffaqiyatli chiqdi. Ham o'z kasbidan qolib, ham tadbirkorlik qilishi bu juda katta imkoniyat. Keyinchalik bildim, bu loyiha Navoiy Pedagogika kollejni bitirib kelgan, shijoatli yoshlardan biri Madina Xolovaning ko'p yillik orzusi bo'lgan ekan. Xolovalarning ham oilaviy korxonasini ochish uchun 30 million so'm mablag' ajratildi. To'g'risi, korxonada hujjatlarini rasmiylashtirish uchun tumandagi Davlat xizmatlari markaziga fuqaro bilan o'zim boraman, yo'1-yo'riq ko'rsataman. Axir, birinchi navbatda tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish shartladi.

Yana bir gap, avvallari o'z uyida xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotini ochish bu nafaqat Madinaning, balki ko'pchilikning armoni bo'lgan. Hozirda 30 nafar mahalla bolalari qishloqning o'zida maktabga tayyorlanmoqda. Bu juda qulay va kamxarj. Davlat sherikchiligi asosida ishlayotgan bog'chada hukumatimizning yengilliklari bisyor. Bog'chaga borayotgan har bir bolaga qonunchilikda belgilangan mablag' davlat tomonidan qoplab berilmoqda. Kun ora kirib kuzataman, bugun qishloq bolalariga "ilk qadam" dasturi asosida ingliz va rus tillarida ham mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Aytishdik, tarbiyaning avvali ibratidir. Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini "Arabxona" mahallasining ibratli xonadonida ochilgan odamlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. To'g'ri, pedagogimiz hali yosh, ammo oilada piru badavlat otaxonu onaxonlar bor.

85 yoshni qarshilagan Abdurasul ota Abdurayimov mirshkor dehqon, tomorqaning bitmas-tuganmas xazina ekanligini anglagan inson. Mahallada ko'pchilik ekin-tekin ishlarini bobodan o'rganadi. Xonadon egalarning issiqxonasida pomidor, bodring, bulg'or qalampir, turp, karam va ko'katni yilning 4 faslida ham topasiz. Xonadon egalari endi xona gullari parvarishlashga harakat qilishmoqda. Oilaviy korxonaning ikkinchi yo'nalishi gulchilik bo'lib, unga 16 million so'm mablag' ajratdik.

Yoshlarni qiziqishini inobatga olib ularning tadbirkorligini moliyalashtirayotganim va kichik loyihalarga qo'l urishimiz juda yaxshi samara berayotgani bois, mahallamizda noan'anviy tadbirkorlikka qo'l urdik. Bosh tadbirkor Umidjon Hakimov kibersport bilan shug'ullanish uchun kompyuter xizmatlarini yo'lga qo'ydik, buning

uchun 100 million so'm pul ajratildi. Chunki, yoshlarni kompyuter savodxonligini oshirish, dunyo bo'yicha e'tirof etilayotgan kibersport turlarini masofadan turib o'ynashiga albatta imkoniyat berish zarur deb uylayman. Bugun ko'pchilik yoshlar xalq ta'бири bilan aytadigan bo'lsak, shu "kompyuterxonada".

Mahallada ishsiz xotin-qizlarga tikuvchilik sirlarini o'rgatish uchun Nigora Samandarovaga 23 million so'm mablag' berdik. Bugun mahalladagi bu tikuvxonada maktab yoshlariga tikuvchilik sirlari o'rgatilayapti. Ma'murjon Abdullayevga esa sartaroshxonada ochib berdik. Bu usta yigitimizga ham kredit mablag'larini ajratildi. Qishloqimizda istiqomat qilayotgan Surmaxon Mamatova ham kelib ishsizligi haqida murojaat qildi. O'rgandim va bu oilaning 4 nafar yosh bolasi borligi, turmush o'rtog'i migratsiyada bo'lgani bois 8,5 million so'mlik imtiyozli kredit bilan bir sotik yerdagi issiqxonada barpo etdik. Bu loyiha ham ish berdi. Tadbirkorimiz bahorda pomidor va bodring hosilini mahalliy bozorga chiqardi. Bugun mahalladagi 115 nafar fuqaroga imtiyozli kredit yo'naltirganmiz. Hali aytganimdek, kichik loyihalar va katta daromad, ko'proq aholi bandligini ta'minlash joiz. Odamlarga turki bo'lsa bas, tadbirkorligini bir boshlab oldim, shuni o'zi yetadi. Oila daromadga kirdim, bu men uchun loyihalarning ish berayotgani demakdir, demak zoye ishlamayapman. Masalan, Husniddin Eshovga 100 million so'm kredit mablag'i evaziga mahalladagi aholini toza ichimlik suvga bo'lgan talabini qanoatlantirish maqsadida "minisex" ochdik. Har kuni o'zim shu suvdan sotib olaman, 20 litr suv 6 ming so'm, hamyonbop. Hatto, toza suvga o'rtamiyona daromad topayotgan oilalar ham pul topa olishadi. Chunki, salomatlik muhim.

Hududning shart-sharoitini yaxshi bilganim uchun qishloqda ikki yarim yil mobaynida tadbirkorlikni rivojlantirish, fuqarolarning biznes loyiha va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tajribasini puxta o'rganдим. Malakamni oshirish uchun oliy ma'lumotli bo'lsamda, moliya iqtisod bo'yicha yana o'qiyapman. Bugun hokim yordamchisi sifatida bitta orzuim bor. "Arabxona"ni namunali mahalla darajasida ko'rish niyatidaman. Chunki, Prezidentimizga butun mamlakat odamlari oldida, xalqimizni rozi qilish uchun shijoat bilan ishlashga so'z berganman.

Sardor ABDUSALIMOV, Navbahor tumanidagi "Arabxona" MFY hokim yordamchisi.

Huquqiy maslahat

YOLG'IZ ONALARGA SOLIQ IMTIYOZI BORMI?

Soliq kodeksining 380-moddasi 5-bandiga ko'ra ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar soliqdan ozod etiladi. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi. Ya'ni daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlaridan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrda PF-196-son Farmoniga ko'ra MHTEKM 1 050 000 so'm etib belgilangan. Daromadingizning 1 480 500 so'm qismi daromad solig'idan ozod qilinadi.

Misol uchun sizning yuqori daromadingiz 3 million so'mni tashkil etsa, yuqoridagi summa soliqdan ozod qilingani hisobiga sizning 1 519 500 so'm miqdoridagi daromadingizdan ushbu ko-

deks 381-moddasiga binoan 12 foiz miqdordagi daromad solig'i undiriladi. Bunda mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnoma asosida beriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga muvofiq quyidagi hujjatlar taqdim etilganda yolg'iz ona deb belgilanadi:

E'LONLAR

TANLOV ASOSIDA...

Navoiy shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 1-ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda PQ-3392-sonli Qaroriga muvofiq, o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ona Vatanga sadoqat va uning mustaqilligini himoya qilish bo'yicha burch tuyg'usini shakllantirish, harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini singdirish, shuningdek, Respublika oliy va oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun yetarli bilimiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarni tizimli ravishda tayyorlash maqsadida Harbiy-vatanparvarlik sinflari tashkil etilmoqda.

Ushbu harbiy vatanparvarlik sinflariga 2024-2025-o'quv yili uchun 6-sinfni tugatgan oquvchilarni 7-sinfga tanlov asosida qabul qilinadi. Nomzodlarning hujjatlari joriy yilning 1-iyulidan boshlab soat 9:00 dan 18:00 gacha 20-iyul kuniga qadar qabul qilinadi.

Manzil: Navoiy shahar, Zarafshon ko'chasi 8-uy.

Murojaat uchun telefonlar: +99893-886-82-88, +99879-223-12-81.

Navoiy davlat pedagogika instituti lavozim muddati tugagan, shuningdek bo'sh lavozimlarni egallashga TANLOV E'LON QILADI

Kafedra dotsenti lavozimiga

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası - 1 nafar; Fizika va astronomiya kafedrası - 1 nafar; Informatika kafedrası - 1 nafar; Matematika kafedrası - 1 nafar; Jismoniy madaniyat kafedrası - 1 nafar; Maktabgacha ta'lim kafedrası - 1 nafar;

Kafedra o'qituvchisi lavozimiga

Biologiya kafedrası - 1 nafar; Texnologik ta'lim kafedrası - 1 nafar; Maktabgacha ta'lim kafedrası - 1 nafar; Umumiy tibbiy fanlar kafedrası - 1 nafar; Informatika kafedrası - 1 nafar; Boshlang'ich ta'lim kafedrası - 1 nafar.

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi 45-uy. Institut Kengashi kotibi U.Utamurodov. Telefon: +99894 254-60-00.

Tanlovda qatnashish uchun arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan berilishi shart. Tanlovda qatnashishni xohlovchilar institut rektori nomiga ariza beradilar, arizaga kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa va oliy ma'lumot (magistr, diplomli mutaxassis) to'g'risidagi diplomlar nusxasi ilova qilinadi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga), ilmiy unvon, shuningdek ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalarini taqdim etishlari lozim.

Yolg'iz onadan tug'ilgan bolaning tug'ilishini qayd etishda yolg'iz (qonuniy nikohda bo'lmagan) ona tomonidan FHDYO organiga onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat va mazkur Yo'riqnomaning 12-ilovasiga muvofiq shakldagi yozma ariza;

Agar tug'ilgan bolaning onasi voyaga yetmagan bo'lsa, tug'ilishni qayd etish bolaning tug'ilganligi haqida tibbiy ma'lumotnoma hamda vasiylik va homiylik organining arizasiga muvofiq FHDYO organi tomonidan qayd etiladi. Bunda, bolani tuqqan onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjati yoki tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi bilan o'qish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilishi lozim.

Alimardon XOLNIOZOV, Karmana tumani adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish Markazi boshlig'i.

Navoiy shahri "Yangi hayot" mahallasi 17-daha "G'alaba shoh" ko'chasi 10-uyda joylashgan "SAMIRA KIDS CENTER" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli aylana muhr va tamg'asi yo'qolganligi sababli e'tibordan soqit qilinadi.

Nurota tamani "Amir Temur" mahallasi "Alpuxori" qishlog'i 43-uyda joylashgan "SUNNATILLO LOCHIN HMKORLAR" xususiy korxonasi tegishli aylana muhr va tamg'asi yo'qolganligi sababli e'tibordan soqit qilinadi.

Navbahor tumani ichki ishlar bo'limi tomonidan 13 yanvar 2016 yilda XUDAYQULOV ZOHID ROZIQOVICH nomiga berilgan, amal qilish muddati 12 yanvar 2026 yilgacha bo'lgan AV 2592233 raqamli O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti yo'qolganligi sababli e'tibordan soqit qilinadi.

Navoiy shahri "Me'morlar" ko'chasi 11A-uyda joylashgan "NAVOIY-AVTO-SAVDO" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli aylana muhr va tamg'asi yo'qolganligi sababli e'tibordan soqit qilinadi.

Karmana tamani "Varq" mahallasi 82-uyda joylashgan "AZAMAT KOZIM 2018" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli aylana muhr va tamg'asi yo'qolganligi sababli e'tibordan soqit qilinadi.

Adabiyot

O'ZBEKNI BILMAGANGA RAHMI KELARDI

O'zbeku o'zbekchilikni madh etgan shoir, Har bir she'riy misrasi o'zlikka doir, Mazkur millat alplari Farhodu Zoyir, O'zbekistonda ekanidan ko'ngli to'lardi – Bu yurtini bilmaganga rahmi kelardi.

O'ziga bek shu millatning shoirin o'g'li, Andijonday gul vodiyni yuragi cho'g'li, Hassa yanglig' ul qalamli tig'li – yu to'g'li, O'zbeki, O'zbekistonni vatan bilardi – Bu elni eshitmaganga rahmi kelardi.

Chinakam bulbulzabon erdi Muhammad, Tangri ha, siylagankim kitobdor ummat, Har bir nazmiy misrasi oltindek qimmat, Tug'di – bitti vatandin zavqqa to'lardi – Tinch yurtini ko'rmaganga rahmi kelardi.

Yangi O'zbekiston o'zi jahonda bitta, Chinakkam dorulomonlik axir shu yurtida, Bu eldan narida kim, yuzshuvut bet-da, Betakror, mazkur shoirni dunyo bilardi – El shoiri kim vatansiz rahmi kelardi.

Tegradagi barhaq Boqiy qaytar shu erni, She'ru shuur ustamoni, peshona terni, Yo'q xalq shoiri qumsamagan o'zga yot yerni, Toshkentni gul shoshkentni vatan bilardi – Unga bir bor kelmaganga rahmi kelardi.

O'zbeku o'zbekchilikni zab kuylagan shoir, Gulgun shu yurt taqdirini o'ylagan shoir, Ash'or bisyor kitoblari millatga doir, Muhammad Yusuf qaytsa, ko'ngil to'lardi – Mazkur oqin hammani do'st, – deb BILARDI!



QIRQ YETTIDA EDI U HALI

Afsusdamen, eng yaxshida umrki qisqa, Yomonlarda hayot uzun, lek tulki nusxa, Ul asilini bir kuni ham ibratli hissa, Ey voh! Qirq yetti yoshda edi u hali – Lokinda, shu yoshinda donishmand vali!

Nolondamen el shoiri oramizda yo'q, Bevaqt qora soya soldi ajalki beo'q, Yaxshiyam kitobi ko'p shundan ko'ngil to'q, Yo Rab! Qirq yetti yoshda edi u hali – Buni qarang, shu umrda chinakkam vali!

Firoqdamen yurt oqini bevaqt rixlatda, Qabru sabr sanalgan tuproq xilqatda, Lokin shoir ruhi isyonni tinchmas xilvatda, Ey, voh! Qirq yetti yoshda edi u hali – Shu qisqa umrda ham u kitobdor vali!

Hijrondamen fig'onimdan chiqayotir dut, Nechun nazm saylanmasin aylolmad but, Chin ummatki sen Raxmon ul jannatda kut, Yo Rab! Qirq yetti yoshda edi u hali – Lokinda shu muchal yoshinda u benazir vali!

Fig'ondamen, Muhammadni yaxshi bilardim, Har gal uchrashganimdachi omad tilardim, Zalvorli bir she'r aytsa, zavqqa to'lardim, Ey voh! Qirq yetti yoshda edi u hali – Endi chin umri mazmunning kelgandi gali!

Alamdami, eng asillarda bu hayot qisqa, Noasilda umrki uzun, u tulki nusxa, El shoirin bir kuni ham biz uchun hissa, Yo Rab! Qirq yetti yoshda edi u hali – Chinakkam kitobdorki, betakror VALI!

MUHAMMADNI QUMSAGAN DAMDA

Shoiralar ko'p, shoiralar talay, Qalamdoru alamdor talay, Qay birini men yodga olay, Muhammadni qumsagan damda – Musht yuragim hali ham g'amda.

Oq varaqqa yopishganlar ko'p, She'r shuur-la topishganlar ko'p, Qalam tishlab qapishganlar ko'p, Yo'q, Muhammad bo'lmoqlik qiyn – Bu yo'l to'la girdibot, qyuin.

Charxu qalam erdi haq shoir, Har bir she'ri o'zlikka doir, Ilhom barin tutolgan Boyir, Horish nima bilmas erdi hech – Unga farqsiz kunduz birla kech.

Ul zavjasi Shoiri boshda, Uch jiggar qiz dadam, –deb qoshda, Gul undirmoq qiyindir toshda, Axir she'r-la tirik Muhammad – U shu zavilda yaralgan ummat.

Qalamoqliq yashash ko'p og'ir, Qalam tutgan barmoqlar dag'ir, She'r, – deb yongan bir umr bag'ir – Doim unga sherik kulba, sham – Yozmagan kun qo'sh ko'zlari nam.

Shoiralar ko'p, shoiralar bisyor, Kim serzahmatki albat tole yor, Bu dam axir kuvganimcha bor, Muhammadni yod etgan damda – Qalbu vujud hali ham G'AMDA!

Muzaffar JAHON, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Iftixor

IMTIYOZ – YOSHLARGA QANOT

Orzular - siz baxtli bo'lgan dunyoga tushishning bir yo'li. Inson dunyoda yashar ekan albatta orzu va maqsad qilishdan charchamaydi. Bugun men kabi yoshlarning orzularini ro'yobga chiqarishda albatta O'zbekiston yoshlar ittifoqining hissasi juda katta. Bu tashkilotga ilk qadam qo'yganimga roppa-rosa 12 yil to'lgan bo'lsa, men uchun ushbu tashkilot ikkinchi uyim, desam adashmayman.

Chinakam ma'noda iqtidorli, iste'dodlilarni kashf etishda yoshlar ittifoqining o'rni beqiyos. 2022-yilda eng katta orzularimdan biri ushaldi. Muddatidan oldin talaba bo'lish baxtiga muayassar bo'ldim. Xudoga behisob shukrki, 2 nafar farzandning onasi uchun oliy ma'lumotli bo'lish baxti juda ham quvonchli ekan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 914-sonli qarori asosida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida 2 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan, yoshlar ittifoqi tizimidagi sardor, boshlang'ich tashkilotlardagi yo'nalish yetakchilari uchun berilgan bu imkoniyat chinakam ma'noda yoshlar uchun katta imtiyoz hisoblanadi. Bunday imtiyozni Navoiy viloyatida ilk marotaba 2018-yil Doston Muxtorov, undan keyin esa 2019-yil Gulhayo Ravshanova, 2020-yil Javohir Husenov, 2021-yil Lobar Jalolova, 2022-yil Kamina, 2023-yil Bahodir Mavlonovlar qo'lga kiritgan.

Mazkur qaror qaysidir ma'noda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, o'sha oliy ta'lim muassasalariga yillar davomida volontyorlik salohiyatiga ega bo'lgan yoshlarga

imtiyoz, imkoniyat, deb bilaman. Aynan tavsiyanoma asosida qabul qilingan yoshlarning qaysidir ma'noda majburiyati bor. Aynan majburiyat degani tavsiyanoma asosida kirgandan keyingi faoliyatida bir vaqtning o'zida to'rt yillik bakalavriat davrida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun ham qator vazifalarni yelkasiga yuklaydi.

O'zim misolimda oladigan bo'lsam ushbu qaror asosida o'qishga qabul qilingan bo'lsam har doim bitta maqsad qo'yganman - 4 yil mana shu ishonchni oqlash va buni albatta davomiy qilib bajarish. Bugungi kunda yurtimizda mana shunday tavsiyanoma asosida o'qishga kirish imkoniyati salohiyati mana shu darajada ekanligi jamiyatda yoshlar siyosatining yuqoriligini baholab bermoqda, - deydi - Gulhayo Ravshanova.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston yoshlar ittifoqi haqiqiy rahbarlarni va faol kadrlarni yetishtirib berishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Kamola KAYUMOVA, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi matbuot kotibi.

Voqeyi hikoya

ONAM BETOB...

Hammayoq zimiston, qorong'ulik qoplangan negadir. Tanam jonsiz, madorim qurigan. Atrofqa qaradim, yoshligimda katta bo'lgan bolalik uyimdaman. Onajonim har doimgidek ro'zg'or tashvishlari bilan band. Onam uyga kirib keldilarda, tur bolam kech bo'ldi, deya derazani ochdi. Birdan hammayoq yorishib ketdi. Sapchib uyg'onsam, kush ko'rayotgan ekanman...

Mushtipar onajonim nega tushimga kirdi, sog'-omonmikan, deya ming xayollar bilan o'rindan turdim ro'zg'or ishlariga sho'ng'itim. Farzandlarimni uyg'otdim, qaynonamni xonasini saranjomlab, oshxonaga yugurdim. Ishga kech qolganim uchun nonushtani tezlashtirdim, farzandlarimni ishga, o'qishga jo'natib o'zim ham ishga shoshdim. Ishxonaga kelishim bilan nega har kuni menga telefon qilib tinchmisan qizim, tanu joning sog'mi deb yaxshi duolar qiladigan onajonim telefon qilmadi degan hadik xayolimdan o'tdi. Aslida onam emas, men telefon qilishim kerak emasmi? Tez-tez qon bosimi oshib, yurak xuruji kasali bezovta qilib turadigan validam doim bolam deb yashaydi.

Birdan hamshirani jarangli ovozi meni xayollarimni chalg'itib yubordi. Matluba opa sizni boshliq chaqiryapti. Enginimga oq xalatni kiydimu boshliqni xonasiga yugurdim. Eshikdan kirib mumkinmi dedim, salom berib xuddi aybi bor boladek yerga qaradim, chunki bugun ishga kech qolgandim. Xo'sh Matluba Qosimovna, bu nima ahvol, katta hamshira bo'lib siz ishga kech qolganingizdan keyin boshqalarga gapirmasa ham bo'ladi... Kechiring deya yerdan ko'z uzolmadim. Gap bunday deya so'z boshladi, boshliq donadona qilib.

Bugun tumanda soat 9.00da katta majlis bo'ladi. Hamshiralarga topshiriqni beringda majlisga kechikmay boring, aylilgan topshiriqlarni, buyruqlarni yaxshilab yozib oling. Xo'p, deya xonamga kirdim hamshiralarga topshiriqlarni berdim hamda majlisga shoshildim. Majlis boshlanishi bilan qo'l telefonim jiringladi. Onajonim qo'ng'iroq qilyapti. Nachora telefonni ko'tara olmadim. Telefonimni ovozsiz qildim majlisdagi gap-so'z, topshiriqlarga sho'ng'ib ketdim. Majlis kun tartibida ko'riladigan masalalar ko'p ekan. Xayolim faqat onamda bo'ldi, shunday

paytda vaqt bunchalar sekin o'tadiya. Soatni bilish uchun telefonimga qararasam onajonimdan sms kelibdi. SMSni kelimini (ukamni tumush o'r-tog'i) yozibdi. Opajon ishxonangizga bordim, majlisga ketgan ekansiz. Oyjionni yana eski dardlari qo'zg'ab, shu kecha uxlolmay chiqdi. Dorilarini olib keldim, hozir yaxshilar... Buni onajonim yozdirgan, bolam xavotir olmasin deb... Chunki men telefonlarini ko'tara olmadimku. Men o'y-xayollar og'ushida qoldim. Yoshligimda meniga bor mehrini berib, qizim do'xtir bo'ladi, uni ketidan faxrlanib yuraman, betob bo'lib qolsam davolaydi deb orzu-havas qilgan onajonimga farzand bo'lib nima qila oldim. Ishdan, ro'zg'ordan, turmush tashvishlaridan ortmay qoldim-ku. Yuragimda allanechuk yoqimsiz og'riqlar paydo bo'lib, nafasim tomog'imga tiqildi, deraza tomon qaradim. Tashqarida unsiz yog'ayotgan yomg'ir xuddi meni mayus yuragimga ezilib-ezilib yog'ardi. Qancha vaqt o'tdi bilmayman, majlisda nima topshiriqlar berildi qulog'imga hech narsa kirmadi. Birdan yonimdagi odamlar to'zib qolishdi. Atrofqa qararasam majlis tugagan, hamma o'z ishiga shoshyapti. Men xam qaytib ishga borish uchun shoshib taksiga o'tirdim. Qo'limga telefonni oldim onajonimga telefon qildim. Go'shakni dardli ovozi bilan onajonim ko'tardilar. Farishtam, onajonim yaxshimisiz. Meni kechiring, hozir yoningizga boraman. Sizni yaxshi ko'raman, mehrbonim dedim tomog'imga tiqilgan alamdin boshqa gapirolmadim. Moshina uzun yo'lda bir tekisda ketayotir, shofyor radio qulog'ini buradi. Kuylayotgan hofiz xuddi meni dilimdaginni aytayapti: "Ona kasalman demang, bolam kasalman demang"...

Matluba TULAYEVA, Karmana tumani 4-son oilaviy poliklinika katta hamshirasi.

“MEN SO'Z UCHUN YARALGANMAN...”

23-aprel. Choshgoh. Tadbirga o'tandim. Shoshilyapman. Telefonim tinmay vizillaydi. Navoiy shahridagi kutubxonaga deya avtoga chiqib oldim. Ish ko'p. Tadbirlar ham. Ayniqsa, butun respublikamiz bo'ylab kitobxonlik haftaligi ketayotgan dam. Yoshlar tarbiyasiga, adabiyot, ma'naviyat, qadriyat haqidagi ustozlar o'g'iti, badiiy kitoblardan olingan xulosalarimizni goh o'zimiz, goh ustoz shoir-adiblar bilan ommaga ma'rifat ulashayotgan qizg'in palla. Vaqt g'animat. Yo'l-yo'lakay qo'ng'iroq qilganlarga qaytib chiqq boshladim. Bugungi tadbirimizni kuydi-pishdisi, Mohira opa bilan Boboqand Mirzoning kitob taqdimoti haqida muhim ishlarni bo'lishib oldik. Mehmonlar, tabrik so'zlar, ma'ruzalar degandek. Yana uch, to'rt kishi bilan galdagi rejalar haqida qisqagina suhbat bo'lib o'tdi. Kirakash yigitning mashina oynasidan tez-tez qarab qo'yishini sezdimu, lekin muhim qo'ng'iroqlarni javobsiz qoldirolmadim. Ish ko'p, vaqt oz, ulgurishimiz kerak. “Boboqand Umarovning yangi kitobi chiqdimi” – dedi yigit kutilmaganda. Yangisi endi chiqayotganligini aytdim. “Boboqand Umarovni yaqindan taniyman, samimiy, mehribon, oqko'ng'il, kirgan davraga fayz bag'ishlaydigan yigit” - dedi suhbatdoshim. Men ham fikrini ma'qulladim. Suhbatimiz manzilga yetguncha shu mavzuda davom etdi. Shoirning xalq ichida biz bilmagan muxlislari ko'p ekanligidan, odamlar she'r, kitob o'qishidan, adabiyot yashayotganligidan quvondim.

Boboqand Mirzo – xassos shoir. She'rlarida navqironlik, jo'mardlik, samimiylik, o'ziga xos falsafa, xalqona ohang, musavvirova yarashiqi tasvir bor. Mavzu jihatdan rangbarang ko'ngil yaratilarning bosh qahramoni shoirning o'zi. She'rlarining mavzusi, ohangi, uslubi o'z-gargani sari qahramon holati ham kechinmalari ham o'zgarib boradi. El farzandi, Vatan kuychisi sifatida o'zini yurtiga, Vatanga sadqa qilib, peshona yozg'idan rizolik, baxtiyorlik tuyadi;



so'zning ortidan goh nasimlar, goh to'fonlar kelishdan, shoirlar dunyoning shohi bo'lsa-da, ko'zlari kulib turib yig'lab turgan yurak qarshisida o'z ekanligidan yozg'iradi. Shoir ko'nglini tushunadigan dildosh qidiradi.

Men oq she'rman, cheksiz bepayon, Yurak bormi anglashga qodir?

Holimiz ne kechar, ahvolimiz ne, Shoir tug'may qo'ysa agar ayollar.

- deya shoiralar taqdiri, ke-lajak she'riyatidan, adabiyotidan ham xavotirli savollar qo'yadi o'quvchiga.

Gohida Mirzo Anvar yanglig' xushxulq shoir yigitni jadidchi bobolar izdoshi sifatida maydonda ko'ramiz. Yovqur, kurashchan, Jaloliddin, Temurlar jasarati va Behbudiy, Qodiriy Cho'lpon, Fitratlar fitratini o'quvchi qalbga joylamoqchi bo'ladi. Dunyoning eng tansiq ne'mati bo'lgan erkni qo'ldan bermaslikka, ozodlik uchun kurashga undaydi o'quvchini.

Erk berilmas olinar tortib, Xayol boshqa, hayot ham boshqa.

Quyidagi misralari hayot falsafasidan dars berayotgan ustoz o'g'itiladik...

Dovonlar eskiradi, Tovonlar eskiradi. Orif So'z yashar mangu, Javonlar eskiradi

Men Xudoning elga exsoni - Sadaqaga berilgan so'zman.

“Men bir chiston, men bir g'azal” - deya kitobxon o'quvchisini sergaklantirsa, “Men so'z uchun yaralganman” - deya o'zining so'z san'atining tarannumchisi ekanligini izhor etishdan shodlanadi, o'quvchini-da shodlantiradi.

Quyidagi satrlarida: Men ham seni g'amingni yeyman, Bodom gulini bolishimga ot. Mangu uxlab qolmasam deymen, Bahor, meni bomdodga uyg'ot. Uyg'otishga onam yo'q meni, Bahor meni bomdodga uyg'ot...

- deya bola kabi ona mehrini qumsaydi. O'quvchini uyg'otlik, sergaklik, yangilanish, yashash, kurashga oltantirmoqchi bo'ladi. Gohida esa shoirni elga suv va havodek kerak ekanligini, ko'ngilga tushgan she'r ishq tuzalmas dardligidan, shoirlik va shoirlar qismati og'irligidan, shoir-larning so'zdan bo'lak ovunchog'i yo'qligidan,

Sayyodlar eskiradi, Faryodlar eskiradi. Yangilanar avlodlar, Ajdodlar eskiradi. Shodumonlik eskirar Balki shunda es kirar. Beminat ustod hayot, Donishmanddir eskilar. Gapirdingmi? Ha, dunyo, Berding menga na a'zali... Men ham g'amman ziyali, Sen esa ko'hna dunyo.

O'tkinchi dunyoning makrlariga aldanib, umr, vaqt, sog'lik, qo'yingchi Alloh bergan ne'matlarni isrof qilib yurgan taqdiridan xavotirlanadi; Kimdir uyg'otishi kerak basharni, Tomoshabin bo'lib tura olmayman. Insoniyat balki, bashariyat taqdiriga o'zini dahldor sezadi, g'afatda yotgan mudroq qalblarni uyg'otmoqchi bo'ladi.

Boboqand Mirzo xalqning erka o'g'li. Shunchaki o'g'il emas, ko'nglida so'z tushqinlari mavjlangan shoir o'g'li. U umrini Vatan koriga tikkan-u bundan ko'ngli to'lmaydi. U ona xalqi, ota makonining sodiq xizmatchisi, qo'lga qalam olib guyoqi dunyoda bor razolatlarga qarshi kurashga o'tangan jangchi sifatida ming obraz, ming turli fikr-mulohaza, savol-jumboq bo'lib so'zdan-so'zga, she'rdan-she'rga yuksalaveradi. Bisotidagi erka so'z quyidagi satrlar ko'rinishida fikrimizni xulosalaydi.

Vatan seni o'zimdand ortib, Yursam deymen ko'tarib boshga. Yohud; Tilimdagi

Kalima VATAN! Biz ham millat dardini meniki deb, xalqiga halol xizmat qilayotgan, vatandoshlariga doim ta'zimda bo'lgan shoir o'g'liga tahsinlar aytamiz. Hulkar G'AFFOROVA, Yozuvchilar uyushmasi Navoiy viloyati bo'limi bosh mutaxassisi.

OCHIQ BIRINCHILIK QIZG'IN RUHDA KECHDI

Joriy yilning 31-may kuni “Yoshlar” sport majmuasida 1-iyun Xalqaro bolalar himoya qilish kuniga bag'ishlab “Bolalarga berilgan dunyoni” shiori ostida badiiy gimnastika sport turi bo'yicha ochiq birinchi musoboqasi bo'lib o'tdi.

Musoboqada Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlaridan jami 108 nafar sportchilar ishtirok etdilar. Bellashuv qizg'in ruhda kechib, har bir ishtirokchi g'oliblik uchun astoydil kurash olib bordi.

Natijalarga ko'ra, 2018-yilda tug'ilgan qizlar o'rtasida “S” guruhda 1-o'rin buxorolik Samera Atoyevaga, “B” guruh bahslarida 1-o'rin Buxoro

shahridan Amina Faxriddinvalarga nasib etdi, 2017-yilda tug'ilganlar o'rtasidagi “B” guruh bahslarida viloyatimiz yoshlarining qo'li baland keldi. 1-o'rin viloyatdoshimiz Charos Saburovaga nasib etdi. “A” guruh bahslarida esa 3 ta o'ringa ham viloyatimiz yosh sportchilari davogarlik qilishdi.

Musoboqa g'olib va sovrondorlar 1-2-3 darajali diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Zohidjon RAXMATOV,

Gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

Sport

“Do'stlik bayrog'i” va “Знамя дружбы” gazetalarini tahririyati davlat unitar korxonasi

MUASSIS: NAVOIY VILOYATI HOKIMLIGI

Bosh muharrir Boboqand UMAROV

TELEFONLAR: Bosh muharrir – 79-224-91-19, qabulxonasi – 79-224-75-04, mas'ul kotib – 79-224-98-74, hisobxonasi – 79-224-12-93, reklama va marketing bo'limi – 79-224-18-97, bosmaxona – 79-224-97-09.

TAHRIRIYAT MANZILI: 210105, Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 36-uy, «Matbuot uyi» binosi.

Tahririyatga kelgan har bir xat e'tibordir! Tijorat materiallari belgisi ostida chop etilgan



Gazeta Navoiy viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 25-martda 07-001-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan Indeks: 4502, 4503

Hajmi 2 bosma taboq. Adadi 3401. Sahifalovchi: O.Nortojiyev.

Korxonaning manzili: “Do'stlik bayrog'i” va “Знамя дружбы” gazetalarini tahririyati DUK matbaa bo'limida ofset usulida bosildi.

Format A-2. Chop etish vaqti – 10:00. Buyurtma Topshirildi – 9:00